ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Folklorda til va madaniyat aloqadorligi (o‘zbek xalq ertaklari misolida) 75

МУНДАРИЖА

АМОНТУРДИЕВА ШОИРА РАВШАНОВНА
Диний услуб фразеологияси 80

OZOTBOYEVA MAXFUZA RAVSHAN QIZI
Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” asarida dialektal diskursiv shaxsning lingvopragmatik talqini 86

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
“Devonu lug‘otit-turk” oziq-ovqat nomlarini qiyosiy o‘rganish uchun asos sifatida..... 90

KO‘CHIMOVA SHAHLO NURIDDIN QIZI
Yuridik matnlarning ekstralingvistik omillari va ularning mazmun shakllanishidagi o‘rni..... 93

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ, НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА
Икки дарё оқиб ўтди..... 97

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 103

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация
тюркского эпоса в XXI веке… 105

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 109

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской
малой прозы в постсоветскую эпоху… 112

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 115

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik..... 119

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati… 122

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 126

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 129

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 131

FERUZA SULTONQULOVA
Usmon Azim she’riyatida Boysun yetakchi motiv sifatida… 134

KIRGIZOVA GULNOZA MAMADALIYEVNA
Iqbol Mirzo she’riyatida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi… 137

QAHHAROVA DILAFRO‘Z ABDUG‘AFFOROVNA
Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar… 140

MAMATQULOV BOTIR
Nazar Eshonqul hikoyalarida shaxs fojiasi talqini..... 143

ABDUNAZAROV O‘TKIR
Bolalar adabiyotida ijodiy izlanishlar (Nosir Fozilov asarlari misolida) 149

TA’LIM

NODIRA JALOLOVA
Kommunikatsion menejment tushunchasi va uning funksiyalari 155

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KOMIL AVAZNING "QO'NALG'A" ASARIDA DIALEKTAL DISKURSIV SHAXSNING LINGVOPRAGMATIK TALQINI

Ozotboyeva Maxfuza Ravshan qizi
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Kirish. Tilshunoslikda so'nggi yillarda antropotsentrik yondashuv yetakchi ilmiy paradigma sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuvda til inson faoliyatining markazida tahlil qilinadi: inson tildan nafaqat aloqa, balki o'zini anglash, dunyoni talqin etish va ijtimoiy tajribani ifodalash vositasi sifatida foydalanadi.

Shu asosda "lisoniy shaxs" va "diskursiv shaxs" kabi tushunchalar shakllandi. Yu.N.Karaulov[1], V.I. Karasik[2] va T.A.van Deyk[3]larning asarlarida bu konsepsiyalar chuqur ilmiy asos oldi.

Karaulov lisoniy shaxsni "til tizimi orqali fikrlaydigan va kommunikatsiyada o'zini namoyon etadigan subyekt" deb izohlagan bo'lsa, Karasik diskursiv shaxsni ijtimoiy rol, kontekst va maqsadlar tizimida faol harakat qiluvchi subyekt sifatida talqin etadi. Shunday qilib, diskursiv shaxs – bu tilni ijtimoiy ma'noda "ishlatadigan" va har bir nutq holatida o'z strategiyasini ongli tanlaydigan insondir.

G'arb tilshunosligida esa bu konsepsiya yanada kengayib, diskurs hokimiyat, ideologiya va shaxsning kognitiv modeli bilan bog'lanadi[4] . Har bir so'z, ohang, grammatik konstruktsiya – shaxsning ijtimoiy identiteti va dunyoqarashining ifodasi sifatida qaraladi.

O'zbek tilshunosligida diskursiv shaxs konsepsiyasi mustaqillikdan keyingi davrda shakllandi. Bu jarayonda A. Nurmonov, N. Mahmudov, Sh. Safarov, M. Abduazizova va N.Normurodova kabi olimlar tilni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tahlil qildilar. Ayniqsa, N.Z.Normurodovaning "Diskursiv shaxs: tushuncha, tuzilishi va rivojlanish tendensiyalari"[5]maqolasi bu borada konseptual yondashuvni taqdim etdi.

Unga ko'ra, diskursiv shaxs – bu lingvistik, kognitiv, pragmatik, aksiologik va sotsiokultural komponentlarning o'zaro birligida namoyon bo'ladigan subyekt bo'lib, til orqali o'zining madaniy va mintaqaviy identifikatsiyasini ifoda etadi[6][4].

Shunday qilib, dialektal diskursiv shaxs – bu diskursiv shaxsning mintaqaviy tildagi ifodasi, ya'ni tilning dialektal qatlamlari orqali o'zini namoyon etuvchi shaxsdir. U tildagi hududiy, leksik va sintaktik belgilar orqali nafaqat kommunikatsiyani, balki shaxsiy hamda ijtimoiy "men"ni shakllantiradi.

Asosiy qism. Dialektal diskursiv shaxs tushunchasi ikki ilmiy asosga tayangan holda shakllanadi:

1 dialektologiya – tilning mintaqaviy ko'rinishlarini tahlil qiluvchi yo'nalish;

2 pragmatika – nutqiy faoliyatda maqsad, niyat va ijtimoiy strategiyalarni o'rganadigan soha.

Bu ikki yondashuv birlashganda, shaxsning tildagi o'zini tutishi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy nuqtayi nazardan ham ochiladi[5].

Dialektal diskursiv shaxs tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u shaxsning tildan foydalanishida quyidagi omillarni uyg'unlashtiradi:

lingvistik – mintaqaviy fonetik, leksik, morfologik birliklar tizimi;

pragmatik – kommunikativ maqsad va strategiyalar.

Badiiy asar diskursiv shaxsni empirik tahlil qilish uchun eng qulay maydon hisoblanadi. Chunki badiiy matnda til, madaniyat, shaxs va ijtimoiy muhit o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Komil Avazning "Qo'nalg'a" asari shu jihatdan o'zbek xalqining nutq madaniyati, ijtimoiy xulqi va mintaqaviy tildagi ifoda uslubini jonli ko'rsatadi. Asardagi qahramonlar nutqida dialektal birliklar shunchaki lingvistik hodisa emas, balki shaxsning ijtimoiy roli, hissiy holati va madaniy identitetini ochuvchi vositadir.

[1] Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987.
[2] Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепт, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.
[3] Van D. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
[4] Maingueneau D. "Discourse Analysis and the Notion of Ethos." Journal of Pragmatics, 2002.
[5] Normurodova N. Z. Diskursiv shaxs: tushuncha, tuzilish va rivojlanish tendensiyalari – Toshkent, 2024.
[6] Normurodova N. Z. "Diskursiv shaxs: tushuncha, tuzilish va rivojlanish tendensiyalari. – Toshkent, 2024.

Fonetik darajadagi tahlil

Fonetik darajadagi dialektal o‘ziga xosliklar eng avvalo talaffuzda namoyon bo‘ladi.

Masalan, ayrim personajlar nutqida a → u yoki o → u tarzidagi tovush almashuvlari kuzatiladi:

Boraman - baraman, beraman - baraman, ol - al, ot- at.

Bunday o‘zgarishlar shunchaki fonetik variant emas, balki mintaqaviy o‘zlikni eslatuvchi identifikatsion belgidir.

Bu talaffuz xususiyatlari muloqotda samimiylik, yaqinlik va “bizlik” hissini kuchaytiradi. Shaxs o‘z mintaqasini tildagi ohang orqali bildiradi.

Fonetik variantlar ko‘pincha og‘zaki nutqda hissiy ohang (intonatsiya) bilan uyg‘unlashadi. Shu sababli ular pragmatik jihatdan emotsional-madaniy signal sifatida ishlaydi[1].

Leksik darajadagi tahlil

Komil Avazning asarida ishlatilgan dialektal so‘zlar xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy xotirasini aks ettiradi. Ular orqali shaxsning tildagi “ovozi” eshitiladi.

Masalan: “Qaptolini” (yonboshini), “tuncha” (mis qumg’on), “otashgir” (o‘t olgich), “chertaklardagi”(chaylalardagi).`

Bu yerda dialektal so‘z madaniy kod sifatida ishlaydi: u so‘zlovchining mintaqaviy kelib chiqishini, dunyoqarashini, hattoki axloqiy qarashini bildiradi. Leksik darajadagi dialektizmlar bir necha lingvopragmatik funksiyalarni bajaradi:

Identifikatsion – shaxsning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligini ko‘rsatadi;

Solidar – suhbatdoshlar orasida yaqinlik va samimiylik muhitini yaratadi;

Ekspressiv – nutqqa tabiiylik va hissiy ohang beradi;

Aksiologik – shaxsning ma’naviy qadriyat va bahosini ifodalaydi.

Masalan, “Danjik bola” iborasi adabiy tildagi “sho‘x bola”dan farqli tarzda iliqlik, xalqona samimiyat bilan aytiladi. Shu tariqa, dialekt so‘z faqat semantik emas, balki hissiy va madaniy ma’no yukiga ega bo‘ladi.

Morfologik darajadagi tahlil

Morfologik sathda dialektal farqlar, asosan, fe’l shakllari orqali namoyon bo‘ladi.

Boraman - baraman, beraman - baraman, ol - al, ot- at.

Bunday fe’l shakllari grammatik jihatdan adabiy til me’yoridan og‘ishgan bo‘lsa-da, emotsional samimiyat va tabiiy nutq ohangini yaratadi.

Pragmatik jihatdan bu birliklar ikki vazifani bajaradi:

1 nutqiy yaqinlikni ifodalaydi (muloqotdagi ishonch, beg‘arazlik);

2 etnik-lisoniy sadoqatni bildiradi (mintaqaviy nutqga hurmat).

Komil Avaz aynan shu usul orqali qahramonlarini “kitobiy” emas, “tirik” shaxslar sifatida ko‘rsatadi. Morfologik o‘zgarishlar orqali shaxsning ruhiy holati ham seziladi: “-vorgan” shakli ko‘pincha achinish, norozilik yoki kinoya ohangini bildiradi.

Bunday nutq parchalari matnga xalqona ruh, milliy kolorit va tabiiylik bag‘ishlaydi. Dialektal so‘zlar orqali qahramonlar “haqiqiy” hayotga yaqinlashtiriladi.

Bu usul orqali Komil Avaz shaxsni nutq orqali ko‘rsatish estetikasini yaratgan. Shaxsning kimligi, kayfiyati va madaniy pozitsiyasi uning nutq ohangida yashiringan. Shu bois, dialektal diskurs – bu shunchaki mintaqaviy hodisa emas, balki lingvopoetik san’at vositasidir.

Sintaktik darajadagi tahlil

Sintaktik sathda dialektal nutqning o‘ziga xosligi gap tuzilishida ko‘rinadi:

Solma (ariq) oqardi, nima bo‘pti?

Bu gaplar adabiy tildagi standart shakldan chetga chiqadi, biroq ular muloqotda tabiiylik va samimiyatni oshiradi. Shaxsning kommunikativ roli (ota, ona, bola yoki qo‘shni) ana shu tildagi tuzilish orqali eshitiladi.

Sintaktik dialektizmlar pragmatik-stilistik gradientni hosil qiladi, ya’ni nutqdagi rasmiylikdan og‘zaki samimiyatga o‘tish mexanizmini ta’minlaydi[2].

Komil Avaz asarida bu usul ko‘pincha ona-bola yoki keksa-yosh dialoglarida qo‘llanadi, bu esa muloqot etikasi va shaxslararo hurmat tuyg‘usini ifodalaydi.

Dialektal birliklarning pragmatik funktsional jadvali

Funksiya turi	Tavsif / asardagi namoyon bo‘lishi	Misollar
Identifikatsion	Shaxsning mintaqaviy mansubligini bildiradi	Talaffuz,leksik birliklar
Solidar	Yaqinlik va samimiyatni ifodalaydi	Dialoglardagi og‘zaki shakllar

[1] Abdurahmonov M. O‘zbek dialektologiyasiga kirish. – Toshkent: Fan, 1982.

[2] Abdurahmonov M. O‘zbek dialektologiyasiga kirish. – Toshkent: Fan, 1982.

Ekspressiv	Hissiy ifoda beradi	Undov, emotsional so‘zlar
Aksiologik	Baholash, qadriyat bildiradi	“Yovg‘on”, “shatir” kabi so‘zlar
Estetik	Badiiy kolorit yaratadi	Qahramon nutqidagi dialektlar

Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” asari misolida olib borilgan lingvopragmatik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, dialektal diskursiv shaxs konsepsiyasi o‘zbek tili materialida o‘ziga xos milliy asos va madaniy zamin topgan. Asarda dialektal nutq personajlarning shaxsiyati, ijtimoiy mavqei, mintaqaviy dunyoqarashi va hissiy holatini ochishda markaziy vosita sifatida ishlaydi.

Dialektal nutq, bir tomondan, xalqning mintaqaviy til boyligini, ikkinchi tomondan, nutqiy tafakkur mentalitetini aks ettiradi. Shu sababli, dialektal birliklarni o‘rganish nafaqat fonetik yoki leksik farqlarni qayd etish, balki insonning madaniy va ijtimoiy mavjudligini til orqali anglash demakdir.

Asar asosidagi tahlillar quyidagi nazariy va amaliy natijalarni ko‘rsatdi:

1 Diskursiv shaxsning ijtimoiy va kommunikativ tabiati

Dialektal diskursiv shaxs tildan faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy strategiya sifatida foydalanadi.

Bu parchalarda dialektal shakllar faqat og‘zaki nutq belgisi emas – ular nutq etikasining tashuvchisi bo‘lib xizmat qiladi. So‘zlovchi muloqotda o‘z mavqeini (ota, ustoz, keksalik maqomi) til orqali bildiradi.

Demak, dialektal diskursiv shaxs kommunikatsiyada ma’naviy va axloqiy mezonlarni til orqali uzatadi.

2 Dialektal birliklarning aksiologik (baholovchi) ahamiyati

Dialektal so‘zlar, iboralar va grammatik shakllar shaxsning axloqiy bahosini ifoda etadi:

Pes (yuzsiz,bezbet) odam, shabgir (ayyor).

Bu yerda so‘zning semantik ma’nosidan tashqari, pragmatik qiymati ham bor – u shaxsning hissiyotini, kayfiyatini va bahosini bildiradi.

Shu bois, dialektal nutq tildagi emotsional semantikani kengaytiradi, matnga xalqona, samimiy ohang olib kiradi.

Normurodova ta’kidlaganidek, “diskursiv shaxsning qadriyatlar tizimi tildagi baholash birliklari orqali obyektivlashadi[1]”. Shu jihatdan, dialektal so‘zlar – bu shaxsning “ichki ovozi”, uning dunyoni ko‘rish va his etish shaklidir.

3 Dialektal birliklarning kommunikativ strategiyadagi o‘rni

Komil Avaz asarida dialektal nutq strategik vosita sifatida ishlatiladi. Shaxs bu vositalar yordamida muloqotda maqsadini noverbal tarzda anglatadi.

Masalan:

buyruqni yumshatish (mitigatsiya),

kinoyaviy baholash,

samimiylik yoki yaqinlikni kuchaytirish,

dialogni tabiiylashtirish.

Bu tildagi strategiyalar pragmatik stilistikaga mansub bo‘lib, ular muloqotning hissiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi.

4 Dialektal birliklarning estetik funksiyasi

Dialektal nutq Komil Avazning badiiy uslubini belgilovchi estetik komponent sifatida namoyon bo‘ladi.

U yozuvchi uchun “xalq tili”ni san’at darajasiga ko‘taruvchi vositadir.

Asardagi dialoglar tabiiy, obrazli va xalqona ohangda bo‘lib, personajlarning “nutqiy hayotini” jonlantiradi.

Bu uslub orqali yozuvchi nutqiy realizmga erishadi – ya’ni, qahramonlarning har biri o‘z mintaqasi, dunyoqarashi va madaniyatiga mos tilda so‘zlaydi. Shu tarzda, dialektal diskurs estetik jihatdan milliy obraz yaratish vositasiga aylanadi.

5 Lingvopragmatik model

Tahlillar natijasida o‘zbek tilida dialektal diskursiv shaxsning kompleks lingvopragmatik modeli quyidagicha ko‘rinish oldi:

Komponent Mazmuni

Lingvistik Fonetik, leksik, morfologik, sintaktik dialektal birliklar tizimi

Pragmatik Kommunikativ maqsad, ro‘l, vaziyatga mos nutq strategiyasi

Aksiologik Qadriyat, e’tiqod, axloqiy mezon ifodasi

Estetik Matnning xalqona va milliy koloritini yaratish

Identifikatsion Shaxsning mintaqaviy va madaniy o‘zligini nutqda bildirishi

Bu model diskursiv shaxsni faqat til tizimi foydalanuvchisi emas, balki madaniy-ijtimoiy aktor sifatida talqin etadi. U dialektal nutq orqali o‘zining dunyoqarashini, his-tuyg‘usini va ijtimoiy pozitsiyasini namoyon etadi.

[1] Normurodova N. Z. “Diskursiv shaxs: tushuncha, tuzilish va rivojlanish tendensiyalari. – Toshkent, 2024.

Xulosa

1. Diskursiv shaxs konsepsiyasi o‘zbek tilshunosligida dialektologik va pragmatik yondashuvlarning integratsiyasi asosida shakllanmoqda.

2. Dialektal birliklar shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi, hissiy ifodasi va madaniy o‘zligini bildiruvchi lingvopragmatik kod sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

3. Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” asari bu modelni amalda ko‘rsatadi: dialektal nutq badiiy, ijtimoiy va axloqiy qatlamlarning kesishgan nuqtasida joylashgan.

4. Asarda dialektal so‘zlar nafaqat mintaqaviy o‘ziga xoslikni, balki inson ruhiyatining tabiiy ifodasini ham beradi.

5. Dialektal diskursiv shaxs – bu o‘zbek tilining madaniy xotirasi va xalq ruhining tildagi ifodasidir.

Rezyume. Mazkur maqolada Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” asari asosida dialektal diskursiv shaxs konsepsiyasi lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Dialektal birliklarning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik darajadagi o‘ziga xosliklari shaxsning ijtimoiy, madaniy hamda kommunikativ o‘zligini belgilovchi vosita sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda dialektal birliklarning identifikatsion, aksiologik, solidar va ekspressiv funksiyalari ochib beriladi, “Qo‘nalg‘a”dagi personajlar nutqi lingvopragmatik modellar asosida tahlil qilinadi.

Resume. This article analyzes the concept of a dialectal discursive person from a linguopragmatic point of view based on Komil Avaz’s work “Konalga”. The phonetic, lexical, morphological and syntactic features of dialectal units are interpreted as a means of determining the social, cultural and communicative identity of a person. The research reveals the identification, axiological, solidary and expressive functions of dialectal units, and the speech of the characters in “Konalga” is analyzed based on linguopragmatic models.

Резюме. В данной статье анализируется понятие диалектной дискурсивной личности с лингвопрагматической точки зрения на примере произведения Комила Аваза «Коналга». Фонетические, лексические, морфологические и синтаксические особенности диалектных единиц интерпретируются как средство определения социальной, культурной и коммуникативной идентичности личности. В исследовании раскрываются идентификационная, аксиологическая, солидарная и экспрессивная функции диалектных единиц, а также анализируется речь персонажей произведения «Коналга» на основе лингвопрагматических моделей.